



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

MARKAZIY OSIYODA GIYOHVANDLIK VA PSIXOTROP
MODDALARNING NOQONUNIY AYLANISHINI OLDINI OLISHNI
XALQARO HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

Abdumajidova Shaxrizoda Shuxrat qizi
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Annotatsiya: Mazkur dissertatsiyada Markaziy Osiyoda giyohvandlik va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishini oldini olishni xalqaro huquqiy tartibga solishning muhim xususiyatlari tahlil qilingan va o'rganib chiqilgan. Ushbu o'rganishlar davomida Markaziy Osiyo davlatlari hisoblangan Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekistonda giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishining oldini olishdagi xalqaro huquqiy normalar keltirilgan hamda nazariy va amaliy ko'nikmalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, ayrim xorijiy davlatlarda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlarning tasnifi va Markaziy Osiyo davlatlari qonunchiligida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar uchun javobgarlik belgilashda xalqaro huquq normalariga amal qilinishi yuzasidan fikrlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, analoglar, prekursori, narkomaniya, zaharvandlik.

Abstract: In this thesis, the important features of the international legal regulation of preventing the illegal circulation of narcotics and psychotropic substances in Central Asia are analyzed and studied. In the course of these studies, international legal norms for preventing the illegal circulation of narcotic drugs or psychotropic substances in Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, Turkmenistan, and Uzbekistan, which are Central Asian countries, were presented, and theoretical and practical skills were developed. Also, in some foreign countries, the classification of crimes consisting of illegal dealing with narcotic drugs and psychotropic substances and the observance of international law norms in the legislation of the Central Asian countries in determining responsibility for crimes consisting of illegal dealing with narcotic drugs and psychotropic substances are presented.

Key words: narcotic drugs, psychotropic substances, analogues, precursors, drug addiction, intoxication.

Аннотация: В данной диссертации анализируются и изучаются важные особенности международно-правового регулирования предотвращения незаконного оборота наркотических средств и психотропных веществ в Центральной Азии. В ходе данных исследований были представлены международно-правовые нормы по предотвращению незаконного оборота наркотических средств или психотропных веществ в Казахстане, Кыргызстане,





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Таджикистане, Туркменистане и Узбекистане, являющихся странами Центральной Азии, а также разработаны теоретические и практические навыки. Также в некоторых зарубежных странах квалификация преступлений, состоящих в незаконном обороте наркотических средств и психотропных веществ, и соблюдение норм международного права в законодательстве стран Центральной Азии при определении ответственности за преступления, заключающиеся в незаконном обороте наркотических средств и психотропных веществ, представлены вещества.

Ключевые слова: *наркотические средства, психотропные вещества, аналоги, прекурсоры, наркотическая зависимость, опьянение.*

Giyohvandlik va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish sohasida mintaqaviy-huquqiy mexanizmlarning yaratilishi umumiy tusdagi hujjatlarda belgilangan maqsadlarga birgalikda erishish doirasidagi yanada uzviy hamkorlik qilish zaruratini keltirib chiqardi. Aynan shuning uchun so'nggi o'n yillarda giyohvandlik va psixotrop moddalarni nazorat qilish sohasida mintaqaviy hamkorlik faol rivojlanib bormoqda. Bu avvalambor, muayyan guruhlariga mansub davlatlarning muammolari va ehtiyojlarining umumiylikini, shuningdek, har bir mintaqaga muayyan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy xususiyatlar xosligini chuqur tushunish va anglash bilan bog'liq.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, giyohvandlik va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashishning mintaqaviy mexanizmlariga bag'ishlangan quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

- giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashishning mintaqaviy mexanizmlari xalqaro huquq prinsiplari va tegishli mintaqaviy tashkilotlarning ustavlariga asosida ishlaydi. Amaliy nuqtai nazardan ta'kidlash joizki, mazkur mexanizmlar aniqroq bo'lib, giyohvandlik va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish bo'yicha tadbirlarni mahalliy xususiyatlarni hisobga olgan holda amalga oshirish imkonini beradi hamda giyohvandlik va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishi tahdidiga qarshi kurashishning markazlari hisoblanadi.

- MDHning 2030 yilgacha mo'ljallangan qarshi strategiyasi loyihasini ishlab chiqishning maqsadga muvofiqligi masalasini o'rganish joiz, giyohvandlik va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashishga alohida e'tibor qaratish masalasi o'rganildi;

- MDHda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish sohasida mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha bazaviy tashkilotni tuzishning maqsadga muvofiqligi masalasi ko'rib chiqildi.

Dissertatsiya ishida quyidagi vazifalar hal etildi:

- giyohvandlik va psixotrop moddalar noqonuniy aylanishining oldini olish nazariy asoslarini o'rganish asosida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish asoslandi;





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

- giyohvandlik va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirishning zamonaviy huquqiy asoslari o'rganildi;
- giyohvandlik va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish bo'yicha BMT tuzilmalari bilan xalqaro hamkorlik samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi;
- Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi hamkorlik misolida giyohvandlik va psixotrop moddalar noqonuniy aylanishining oldini olish bo'yicha mintaqaviy hamkorlikni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari belgilandi;
- ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Xususan, 2020 yilning "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilinishi yangilanayotgan O'zbekistondagi islohotlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishga yo'naltirilgan. Prezidentimizning Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz"⁵⁵. Shundan keyin fuqarolarda "raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt" atamasi haqida ko'plab savollar tug'ila boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni 17-bandi 2-qismiga ko'ra, iqtisodiyot tarmoqlarida virtual va to'ldirilgan reallik, sun'iy intellekt, kriptografiya, katta ma'lumotlarni tahlil qilish va "bulutli" hisoblash texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish masalalari yoritilgan.

Ushbu normativ huquqiy hujjatda keltirilgan asosiy tushunchalardan biri sun'iy ong, sun'iy intellekt yoki sun'iy idrok (inglizcha: Artificial intelligence; odatda, AI sifatida ham qisqartiriladi) — insonlar yoki hayvonlar tomonidan ko'rsatiladigan tabiiy ongdan farqli o'laroq, mashinalar tomonidan ko'rsatiladigan ongdir. Bugungi kunda nafaqat **Markaziy Osiyoda balki butun dunyoda giyohvandlik va psixotrop moddalar noqonuniy aylanishining ortishi ham aynan (AI) bilan bo'g'liq** desak, mubolag'a bo'lmaydi. Sababi, ilgari ushbu turdagi jinoyatni sodir etadigan shaxslar noqonuniy tranzaksiyalarni bojxona postlari orqali turli xildagi ofshor yo'llar (yuk mashinalarining turli xildagi qismlariga berkitilgan yoki inson tanasiga sun'iy yo'l orqali joylashtirilgan) bilan olib kelgan bo'lsa, bugungi kunga kelib (AI) sun'iy intellektning rivojlanishi ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etilish darajasini bir necha barobarga yengillashtirdi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Markaziy Osiyoda sun'iy intellektning rivojlanishi giyohvandlik va psixotrop moddalar bilan bog'liq jinoyatlarni qisqa muddat ichida aniqlash, oldini olish va ularning tarqalgan ko'rinishlari va yo'llari haqida tahlil va prognostika qilishda muhim

⁵⁵ Yangilanayotgan O'zbekistonning ustuvor yo'nalish va vazifalari.

<http://insonhuquqlari.uz/oz/news/yangilanayotgan-ozbekistonning-ustuvor-yonalish-va-vazifalari>;





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

rol o'ynaydi. Sun'iy intellekt (AI) texnikasi, boshqarish va monitoring tizimlari, tahlil va prediktiv analitika vositalari sifatida jinoyatchilar va tashqi yo'llardan olib kirish usullari va turli xil ofshor yo'llarini aniqlashda yordam berishi mumkin. Endilikda ushbu turdagi jinoyatni sodir etayotgan shaxslar giyohvand va psixotrop moddalarni chet eldan olib kirish o'rniga, ularning analoglarini olib kirishmoqda, ularning analoglari va (AI) sun'iy intellekt yordamida turli ko'rinishdagi giyohvandlik va psixotrop moddalarni tayyorlashmoqda va ularni momalaga kiritishmoqda. Aynan mana shu sintetik giyohvand moddalarning qiymati giyohvandlik moddalaridan bir necha barobarga past baholanishi, ammo ushbu moddalar bilan bir xil xususiyatga ega ekanligi ma'lum. Bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanmish sintetik moddalarning noqonuniy aylanishi hamda uning hozirda xuddi "pitsa buyurtma qilishlik" kabi oson va tez yetkazib berilayotganligiga qarshi kurashish bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida mintaqaviy hamkorlikni yo'lga qo'yishlik maqsadga muvofiq bo'lar edi. Xususan, sintetik moddalarning inson organizmiga qanchalik zarar yetkazishi deyarli o'rganilmaganligi yetmagandek, ularning qo'lbola usulda iflos "laboratoriyalar" nomi ostidagi uylarda ishlab chiqarilmoqda.

Ushbu sohalarda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish samaradorligi bir necha **shartlarga** bog'liq:

birinchidan, xalqaro konvensiyalarning barcha ishtirokchi-davlatlar tomonidan bajarilishini ta'minlash kerak, chunki global profilaktika choralari tarmog'idagi bo'shliqlardan jinoiy tashkilotlar o'z manfaatlarini yo'lida doimiy ravishda foydalanadilar;

ikkinchidan, konvensiyalarning faqat minimal darajadagi talablarni ifodalovchi qoidalar har bir mamlakatda chuqur ishlab chiqilgan, har tomonlama milliy qadamlar bilan to'ldirilishi kerak;

uchinchidan, konvensiyalar asosida xalqaro hamkorlikni faollashtirish, birgalikdagi harakatlarni har tomonlama kengaytirish zarur;

to'rtinchidan, giyohvandlikka qarshi kurashni jinoyatlar dinamikasiga mos ravishda o'z vaqtida tuzatish, unga qarshi ko'rilayotgan chora-tadbirlarga tez moslashish zarur.

